

TIL VA ADABIYOT

12/2025

TA'LIMI



ADABIYOTDA
SAMARALIMI?

HAMKORLIK
PEDAGOGIKASI

5 YO'A

RABG'UZIY &
BAYRON

SHOIR KIM?
**Guljamol
Asqarova**

HECH KIMGA

SU'ANMAY

YUKSALGAN TOG'LAR

mundarija

Yangiliklar 4

MOZIYDAN MAKTUBLAR

Inomjon AZIMOV

I Turkologiya qurultoyi: 100 yil burun
tashlangan va to'xta(til)gan odim 6

TARAQQIYOT TAROZISI

Umid XO'JAMQULOV

So'z san'ati va sun'iy intellekt 12

SHOIR KIM?


Dadaxon MUHAMMADIYEV

Sha'n davralarga ketmog'im kerak! 18

SIM-SIM

Bahodir XOLIQOV

Demiurg: miflararo hunarmandlikdan
kosmosgacha 32



12

SO'Z SAN'ATI VA
SUN'IY INTELLEKT

Shoir kim?

18



ilmiy-
metodik
yechim

38



METODIK TAVSIYA

Qozoqboy YO'LDOSH

Hamkorlik pedagogikasi:
tarix, yetakchi belgilar va mohiyat. 38

Xurshida NISHONOVA

"Saviyaga tushmaslik"
tamoyili 42

ILMIY TADQIQOT

**Muyassar TILOVOVA,
Iroda HABIBULLAYEVA**

Badiiy adabiyotda shayton
obrazi talqinlari
(Rabg'uziy va Bayron ijodi misolida) 46

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА
И ЛИТЕРАТУРЫ 49




ПРЕПОДАВАНИЕ

№12/2025	
ПРЕПОДАВАНИЕ языка и литературы	
МЕТОДИКА. ОПЫТ Замира Нурмонова Человек с душой, или Мир, овеянный улыбкой. 50 ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Наталья Чернова Современные педагогические технологии и цифровые инструменты в образовательном процессе. 54 Шоира Машарипова Нестандартные методы и приемы развития читательских компетенций учащихся. 58 Дилноза Мухитдинова Читательская грамотность как ключ к успешности учащихся. 61	Гульнара Дуйсинава Создание электронной среды для внедрения имитационных дидактических моделей при обучении русскому языку с помощью искусственного интеллекта. 64 ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ Сайёра Махмуджониева Быт как зеркало культуры: лингвокультурный анализ русской пословной лексики. 66 РУССКОЯЗЫЧНАЯ ЛИТЕРАТУРА Асель Исмаилова Поэтический синтез Востока и Запада в творчестве Баха Ахмедова. 68 НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Тулкин Тогаев О некоторых тюркских (узбекских) словах, заимствованных в русский язык. 71 Максимино Ярмаева Лингвокультурные различия в интерпретации зоонимов волк в русских и узбекских пословицах. 75 Чаросмон Абдуллаева Проблема авторской интерпретации сновидений в повествовательной стратегии современного романа. 79
PISA	
WWW.TJURADABYOT.LI.Z 49	

ESLAFZ SAINIYATI VA SUN'IY INTELEKT

Umid XO'JAMQULOV
pedagogika fanlari doktori, professor



(3-maqola)

SUN'IY INTELEKT (SI) ADABIYOT TA'LIMIGA HAM JADAL KIRIB KELYAPTI. SI MATN MAZMUNINI BAYON QILISH, QAHRAMON TAVSIFI, MAVZU SHARHI, HATTO ESSE NAMUNASINI YARATISH KABI VAZIFALARNI QISQA SONIYALARDA BAJARA OLADI. NATIJADA O'QITUVCHI VA O'QUVCHINING VAQTI TEJALADI, DARSGA TAYYORGARLIK TEZLASHADI, QO'SHIMCHA MANBALARGA MUHOJAT QILISH IMKONIYATI KENGAYADI.

Ammo sun'iy intellekt va adabiy ta'limning nomuvofiqligi shundaki, SI ko'pincha eng ehtimoliy, eng umumiy, eng tezkor javobni taklif etadi, adabiyot esa sabr bilan o'qish, qiyoslash, shubha qilish va dalillashni talab qiladi. Adabiyot ko'p ma'nolilikka tayanadi. Bir matnga nisbatan turli talqinlar bo'lishi tabiiy, hatto zarur. Sining javobi zohiran to'g'ridek ko'rinsa-da, badiiy asarning ichki murakkabligi, milliy-madaniy konteksti, obrazning yashirin psixologik qatlamlarini doim ham ochib bermaydi. O'quvchi o'zi tahlil qilmasdan tayyor talqinga suyanib qolsa, bilimi shaklan mavjud bo'ladi, ammo anglash saviyasi pasayadi. Ya'ni javob bor, lekin shaxsiy pozitsiya yetarli darajada shakllanmaydi; fikr bor, lekin u matn dalili bilan mustahkamlanmaydi. Bu holat adabiyot ta'limining tarbiyaviy va tafakkurni rivojlantiruvchi mohiyatiga zid keladi, mustaqil badiiy fikrlashni zaiflashtiradi.

Adabiyot darsining asosiy xususiyati tayyor javob emas, balki matn bilan fikriy-emotsional muloqotdir. O'quvchi asarni o'qib, ma'no qatlamlarini ochishi, obraz va badiiy detallardan xulosa chiqarishi, muallif pozitsiyasiga nisbatan o'z munosabatini shakllantirishi kerak. Shundagina tahlil haqiqiy tahlilga, talqin esa shaxsiy intellektual mehnat natijasiga aylanadi. L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, "Bola bugun hamkorlikda bajargan ishini ertaga mustaqil bajara oladi" [1]. Demak, SI bilan hamkorlik o'quvchini mustaqillikka olib borishi kerak; agar u, aksincha, tayyor javobga qaramlikni kuchaytirs, metodik maqsad buziladi.

Yana bir xavf badiiy talqinning birxillashuvidir. Adabiyotda yagona, o'zgarmas to'g'ri javob doim ham bo'lmaydi; turli nuqtayi nazarlar, shaxsiy o'qish tajribasi va madaniy kontekstlar talqinni boyitadi. SIdan maqsadsiz foydalanish esa o'quvchini shablon ifoda va qolip xulosalarga olib boradi, ijodiy fikrni cheklaydi. Akademik halollik (iqtibosni to'g'ri berish, manbani aniq ko'rsatish, plagiatdan tiyilish, shaxsiy fikrni ajrata olish)ga putur yetadi.

Shu sababli bugungi asosiy muammo "SIdan foydalanish kerakmi?" emas, balki "SIdan qanday foydalanish kerak?" degan savolning javobida oydinlashadi. Agar SI dars maqsadiga aniq bog'lansa, tahlilni chuqurlashtiruvchi, talqinni boyituvchi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi vositaga aylanadi. Aks holda, adabiyot darsini intellektual mehnatdan uzoqlashtiradi. Demak, muammoning yechimi SIdan ko'proq foydalanishda emas, uning pedagogik vazifasini aniq belgilaydigan maqsadli metodik mexanizmni yaratishda.

Adabiyot ta'limi tayyor qoida yoki yagona javobni emas, badiiy matn orqali ma'no izlash jarayonini o'rgatadi. Shuning uchun adabiyot darsida o'quvchi faqat voqealarni eslab qolish bilan cheklanmaydi; matnning ichki qatlamlariga kiradi, badiiy detallar o'rtasidagi bog'lanishni topadi, muallif niyati va asarning estetik ta'sir mexanizmlarini anglashga harakat qiladi. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton adabiyot spetsifikasini juda aniq belgilab beradi: "San'at turi sifatida adabiyotning o'ziga xosligi uning so'z vositasida obraz yaratishida ko'zga tashlanadi" [2]. Mazkur nazariy qarash adabiyot darsining metodik mohiyatini ham belgilaydi: o'quvchi matnni "nima deyilgani" uchun-gina emas, "qanday aytilgani" va "nega aynan shunday badiiy shakl tanlangani" uchun ham o'rganishi kerak. Demak, adabiyot ta'limida obraz, ramz, uslub va muallif pozitsiyasi tahlili markaziy o'rin tutadi.

Adabiyotda bir so'z yoki badiiy detal ham katta g'oyaviy yuk tashiydi; til lug'aviy birliklar majmuasi sifatida emas, estetik tafakkur vositasi sifatida o'rganiladi. Shu bilan birga, adabiyot darsi o'quvchining shaxsiy-emotsional munosabatiga tayanadi: u qahramon taqdiri va axloqiy tanlovlar orqali his qilish, qiyoslash, bahslashish va o'z




**“Qachon?,
nima uchun?,
qanday?”
formulasiga
tayangan
ushbu protokol
darsni yengil
yo'lga emas,
chuqur
o'qishga
yo'naltiradi.**

nuqtayi nazarini madaniy tarzda ifodalashni o'rganadi. Demak, adabiyot ta'limi matnni soddalashtirishga emas, uning badiiy tabiatini saqlagan holda o'quvchini qayta bayondan talqinga, tayyor fikrdan mustaqil xulosaga, chuqur estetik anglashga olib chiqishga qaratilgandagina haqiqiy ta'sirga erishiladi.

Bugungi adabiyot ta'limi an'anaviy "o'qish va qayta aytish" modelidan kompetensiyaviy, tafakkurga yo'naltirilgan modelga o'tmoqda: endi natija o'quvchining qancha ma'lumot eslab qolgani bilan emas, matndan dalil keltirib mustaqil xulosa chiqara olishi, qahramon va muallif pozitsiyasini qiyosiy tahlil etishi, o'z fikrini asosli himoya qila olishi bilan baholanadi; S.Vinsent-Lankrin ta'rifi bilan aytganda: *"Ijodkorlik – yangi va maqbul g'oya (yoki yechim) yaratish qobiliyati"*dir [3: 84]; bundan tashqari, raqamli muhitda multimodal savodxonlik (matn, audio, video, infografika, interfaol manbalarni qiyosiy tahlil qilish) va akademik halollik adabiyot ta'limining ajralmas shartiga aylanadi.

Bundan ko'rinadiki, darsda SI noto'g'ri yoki maqsadsiz qo'llansa, o'quvchining fikriy mehnatini yengillashtirmaydi, aksincha, uning o'rnini egallab olishi mumkin. Shu bois ababiyot ta'limida texnologik imkoniyatdan ko'ra metodik maqsad birinchi o'rinda turishi, SI dan foydalanishda ma'naviy-psixologik omillar ham hisobga olinishi shart.

Ehtiyotkor metodik yondashuvning zarurati baholash tizimida yanada yaqqol ko'rinadi. Adabiyotda esse, tahlil, qiyosiy talqin kabi yozma ishlar asosiy o'rin tutadi. SI dan nazoratsiz foydalanilganda o'quvchining haqiqiy bilim darajasi bilan taqdim etilgan matn sifati o'rtasida tafovut paydo bo'ladi. Bu esa baholash adolatini buzadi, o'qituvchini chalg'itadi, izlanuvchan o'quvchilarning o'z mehnatiga ishonchini kamaytiradi. Shuning uchun adabiyot darsida natijaningina emas, jarayonni ham baholaydigan mexanizmlar kerak: qoralama, dalil tahlil, qayta tahrir, og'zaki himoya, manba ko'rsatish kabi bosqichlar mustahkamlanishi lozim. Adabiyot muallimi o'quvchiga faqat asar maz-



**Sun'iy
intellekt
o'qituvchilarni
qo'llab-
quvvatlash
uchun
imkoniyat
yaratlsa-da,
ta'limning
markazida
baribir
o'qituvchi
va o'quvchi
o'rtasidagi
insoniy
muloqot
hamda
hamkorlik
turishi shart.**

munini emas, intellektual poklikni ham o'rgatishi kerak: manbaga hurmat, iqtibos madaniyati, muallif fikrini o'z fikridan ajratish, asoslanmagan da'voni tanqidiy tekshirish va boshqalar.

Sun'iy intellektni adabiyot darsiga tatbiq etishning eng muhim sharti, bizningcha, uni javob beruvchi mashina emas, o'quvchining fikrlash jarayonini qo'llab-quvvatlovchi, qo'zg'atuvchi didaktik vosita sifatida ko'rishdir. Shu nuqtayi nazardan SI ning didaktik imkoniyatlari uch yo'nalishda samarali: **o'quvchilarga individual yondashuv, matn tahlilini qo'llab-quvvatlash va nutq-yozma ijodni rivojlantirish.**

Individual yondashuv adabiyot darsida juda katta ahamiyatga ega. Sinfda matnni tez anglaydigan, badiiy tilni tushinishda qiynaladigan o'quvchilar bo'ladi. O'qituvchi hamma-ga bir xil topshiriq bersa, ayrimlar uchun u yengil, boshqalar uchun murakkab bo'lib qoladi. SI esa bir asarning o'zi bo'yicha turli darajadagi topshiriqlar tuzishga yordam beradi: masalan, boshlang'ich bosqichda voqealar ketma-ketligi, o'rta bosqichda qahramon qarorining sabab-oqibati, yuqori bosqichda esa muallif pozitsiyasi va tarixiy muhit bog'liqligi bo'yicha murakkab tahliliy topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, SI orqali qiyin so'z va iboralarga soddalug'aviy izoh, tarixiy-madaniy tushunchalarga qisqa ma'lumot, matnga kirish uchun yo'l-yo'riq savollarini tayyorlash mumkin.

Bu jihatni "O'tkan kunlar" misolida ko'ramiz. Bir guruh o'quvchilarga quyidagi bazaviy topshiriq beriladi: *"Asardagi asosiy voqealarni besh bosqichga ajratish"*. Keyingi darajada: *"Otabek va Kumush munosabatiga ta'sir qilgan ijtimoiy omillarni ajratish"*. Yuqori darajada esa: *"Otabek*

obrazida yangilanish g'oyasi qaysi epizod va nutqiy detallar orqali ochilgan?" kabi savollar berilishi mumkin. SI bu topshiriqlarni differensiallashtirishda texnik yordam beradi, ammo yakuniy tahlilni o'quvchining o'zi qiladi.

Matn tahlilida o'quvchini qo'llab-quvvatlash. Adabiyot darsida ko'pchilik o'quvchi sujetni tushunsa-da, ichki bog'lanishlar, motivlar tizimi, qahramonlar munosabatidagi dinamikani ko'rishga qiynaladi. SI shu yerda vizual va tuzilmaviy yordam bera oladi: sujet xaritasi, qahramonlar aloqadorligi jadvali, "hodisa – sabab – oqibat" zanjiri, motivlar takrori sxemasi kabi shakllar tayyorlanadi. Masalan, "O'tkan kunlar"da "sevgi – oila – jamiyat – an'ana – yangilanish" motivlari qanday tutashishini sxema orqali ochsa bo'ladi. Yoki Otabek, Kumush, Zaynab atrofidagi munosabatlarni "emotsional ziddiyat – ijtimoiy bosim – axloqiy tanlov" mezonlarida xaritalash o'quvchiga xarakterlar psixologiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Komparativ (qiyosiy) tahlil uchun ham SI juda qo'l keladi. Masalan, "O'tkan kunlar"dagi Otabek obrazini "Mehrobdan chayon"dagi Anvar obrazi bilan qiyoslash uchun shablon beriladi:

- tarixiy-ijtimoiy vaziyat;
- qahramonning maqsadi;
- ichki ziddiyat;
- qaror va oqibat;
- muallifning g'oyaviy bahosi.

Bu shablon o'quvchiga tizimli qiyoslashga yordam beradi.

Nutq va yozma ijodni rivojlantirish. Adabiyot darsida ko'pincha reja yo'qligi, dalil tanlash qiyinligi, fikrni izchil bayon qila olmaslik sababli esse yozish ko'nikmasi sekin rivojlanadi. SI bu muammoni bosqichma-bosqich yechishga yordam bera oladi: avval esse rejasi (*kirish – dalil – tahlil – xulosa*), keyin argumentatsiya tuzilmasi (*da'vo – matndan dalil – sharh – oraliq xulosa*), so'ng tahrir tekshiruv ro'yxati (*mantiqiy izchillik, til me'yori, iqtibos to'g'riligi, xulosa kuchi*) qo'llanadi; natijada o'quvchi fikrni tartibli, dalilli va adabiy me'yorlarga muvofiq bayon etish ko'nikmasini izchil shakllantiradi. Masalan, "O'tkan kunlar" bo'yicha "Otabek – an'ana va yangilanish o'rtasidagi shaxs" mavzusida esse yozishda o'quvchiga quyidagi qolip beriladi:

- tezis;
- asardan 2-3 ta dalil;
- har bir dalilning g'oyaviy izohi;
- muallif pozitsiyasiga munosabat;
- shaxsiy xulosa.

Bu usul o'quvchini tayyor matnni ko'chirishdan saqlaydi va o'z fikrini dalil bilan ifodalashga o'rgatadi. Shunday qilib, Sining foydasi didaktik imkoniyati tezkorligida emas, metodik jihatdan to'g'ri joylashtirilganida namoyon bo'ladi.

Adabiyot darslarida SIdan maqsadli foydalanish modeli to'rt tayanch tamoyilga qurilishi zarur:

1) **pedagog yetakchiligi:** SI o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi, balki uning didaktik maqsadiga xizmat qiladi, chunki badiiy matndagi emotsional-psixologik, milliy-madaniy va axloqiy qatlamlarni to'liq algoritmlashtirib bo'lmaydi; buni UNESCO ham tasdiqlaydi: "Sun'iy intellekt o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyat yaratasa-da, ta'limning markazida baribir o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi insoniy muloqot hamda hamkorlik turishi shart" [4: 44];

2) **didaktik maqsadga bog'liqlik:** SI vositasi "Nima qila oladi?" deb emas, "Qaysi o'quv natijasiga xizmat qiladi?" degan mezon bilan tanlanishi lozim (masalan, "O'tkan kunlar"da lug'at va izoh – tushunishga, sxema tahlilga, esse tuzilmasi – ifodaga xizmat qiladi);

3) **shaffoflik va tekshiruvchanlik:** SI javobi manba, iqtibos va matn dalili orqali qayta tekshirilib, akademik halollik mustahkamlanadi. OECD ham zamonaviy SI muhitida inson agentligi, shaffoflik va mas'uliyat masalalarini markaziy prinsip sifatida belgilaydi [5];

4) **kognitiv faollikni saqlash:** SI tayyor natija bermasdan, fikrlash jarayonini qo'llab-quvvatlashi kerak (esse uchun tuzilma, talqin uchun savol, qayta ishlash uchun fikr-mulohaza), aks holda "false mastery", ya'ni tashqi yaxshi javob ortida haqiqiy anglash zaiflashishi xavfi kuchayadi [6].

Umuman, adabiyot ta'limi sifatini oshirishda SIdan maqsadli foydalanish modeli oddiy, ammo qat'iy mantiqqa tayanadi: o'qituvchi yetakchi bo'lsa, vosita maqsadga xizmat qilsa, natija tekshirilsa va o'quvchining fikriy faolligi saqlansa, SI samara beradi. Aks holda u bilimni emas, bilim ko'rinishidagi tayyor matnni ko'paytirib qo'yadi. Demak, mazkur tamoyillar nafaqat metodik tavsiya, balki adabiyot darsining sifat va mazmunini himoya qiluvchi zarur pedagogik me'yor hamdir.

"Vazifaga mos SI konsepsiyasi" (muallif talqini – U.X.) adabiyot darsida bitta oddiy, lekin hal qiluvchi qoidani taklif qiladi: avval vazifa aniqlanadi, keyin vosita tanlanadi. Ya'ni "Darsning muayyan bosqichida o'quv natijasi nima, bunga qaysi subyekt (*o'qituvchi, o'quvchi, SI*) ko'proq hissa qo'sha oladi?" degan metodik savol markazga chiqadi. Shu tariqa SI darsning faqat zarur nuqtalariga kiritiladi; inson talqini esa badiiy ma'no, qadriyat va estetik baholash bosqichlarda yetakchi bo'lib qolaveradi.

Shu konsepsiya asosida "O'tkan kunlar" asari misolida uch bosqichli amaliy jarayonni ko'rib chiqamiz:

- SI kerak bo'ladigan bosqich;
- inson talqini shart bo'ladigan bosqich;
- qo'shma (inson+SI) ish samarali bo'ladigan bosqich.

Darsning tayyorgarlik va yo'naltirish qismida SI qo'l keladi. Masalan, o'quvchilar asarni o'qishdan oldin tarixiy-ijtimoiy fon, qiyin lug'aviy birliklar, personajlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Shu yerda SI quyidagi texnik vazifalarni tez va manzilli bajarishi mumkin: darajaga mos lug'at, qisqa izohlar, sujetga kirish savollari, o'qishdan oldingi mini-topshiriqlar. Bu bosqichda SI samarali, chunki anglash

uchun zarur tayanchni beradi, lekin talqinning oʻrni ni bosmaydi. Masalan, “Oʻtkan kunlar” uchun SI yordamida “XIX asr Toshkent – Margʻilon ijtimoiy muhiti”, “Xonlik davri boshqaruv tizimiga oid tushunchalar”, “Sharqona odob-axloq va muomala madaniyati”, “Yangi fikr va anʼanaviy qarash toʻqnashuvi” kabi mavzular boʻyicha 8–10 tadan qisqa izoh tayyorlanadi. Natijada oʻquvchi matnga tayyor holda kiradi.

Asarning gʻoyaviy-estetik markazi ochiladigan bosqichda inson talqini shart. Masalan, “Otabekning ichki ziddiyati nimada?”, “Kumush obrazida muhabbat va qadriyatlar qanday birlashgan?”, “Zaynab taqdiri orqali muallif qanday ijtimoiy fikrni aytmoqchi?” kabi savollar tayyor shablon bilan emas, sinfdagi muloqot, bahs, dalil va qarshi fikrlar orqali ochiladi. Bu yerda oʻqituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega: u oʻquvchini toʻgʻri javobga emas, asoslangan fikrga olib borishi maqsadga muvofiq; matndagi bir detalni bir necha nuqtayi nazardan koʻrishga undashi kerak.

Eng yuqori samara esa qoʻshma (*inson+SI*) faoliyatda koʻrinadi. Bu tahlildan keyingi amaliy-ijodiy bosqich. Masalan, oʻquvchi “Otabek obrazida islohotchilik ruhi” mavzusida esse yozmoqchi. Bu jarayonda SI unga tuzilma berishi mumkin: tezisni aniqlash, dalillarni tartiblash, xatboshilar mantigʻini tuzish, tildagi ortiqcha tak-

rorlarni koʻrsatish va hokazo. Lekin dalilni tanlash, uning badiiy ahamiyatini sharhlash, shaxsiy xulosani ifodalash masalasi oʻquvchining oʻzida qolishi kerak. Oʻqituvchi esa bu jarayonni nazorat qiladi: “Qaysi jumla oʻz fikring?”, “Qaysi dalil matndan?”, “Qaysi xulosa yetarlicha asoslanmagan?” kabi savollar bilan ishni chuqurlashtiradi. Shu tarzda SI texnik yordamchi, oʻquvchi fikr egasi, oʻqituvchi esa metodik yoʻnaltiruvchi boʻladi.

“Vazifaga mos SI konsepsiyasi”ning qimmatini shundaki, u darsda rollar chegarasini aniqlaydi. SI tayyorgarlik, tuzilmalash, tezkor fidbek va individuallashtirishda kuchli boʻlsa, inson talqin, baholash, qadriyat va estetik qarorda yetakchi boʻlishi lozim.

Adabiyot taʼlimida SIdan samarali foydalanishning eng ishonchli yoʻli undan darsning tabiiy mantigʻiga mos holda bosqichma-bosqich foydalanishdir. Shu jihatdan uch bosqichli metodik algoritmi taklif etiladi: darsgacha tayyorlov, dars jarayonida talqin va munozarani chuqurlashtirish, darsdan keyin ijodiy ish va qayta yozish. Bu algoritmi texnologiyani markazga qoʻymaydi, aksincha, oʻquvchining matn bilan mustaqil muloqotini markazda saqlagan holda SIni yordamchi vosita sifatida ishlatadi.


Ushbu algoritmi “Oʻtkan kunlar” asari misolida koʻrib chiqamiz.

Bosqich	Didaktik maqsad	Slning vazifasi	Oʻqituvchi-ning vazifasi	Oʻquvchining faoliyati	“Oʻtkan kunlar” boʻyicha aniq misol	Kutiladigan natija
1. Darsgacha (tayyorlov)	Matnni anglash uchun tayanch yaratish: bilim, lugʻat, kirish savollari.	Qiyin soʻzlar lugʻatini tuzish, tarixiy-kontekst izohlar berish, yoʻnaltiruvchi savollar tayyorlash.	Munozarani boshqaradi, savollarni chuqurlashtiradi, talqinni matn daliliga bogʻlaydi.	Mutolaagacha tayyorgarlik koʻradi, lugʻat bilan ishlaydi, oldindan fikr yuritadi.	“Otabek qarorlariga davr muhiti qanday taʼsir qiladi?” kabi savollar; tarixiy atamalarga qisqa izoh.	Oʻquvchi matnga tayyor holda kiradi, tushinishda toʻsiqlar kamayadi.
2. Dars jarayoni (talqin va munozara)	Koʻp qatlamli tahlil, dalil asosida talqin, munozara madaniyati.	Tahlil shablони (daʼvo – dalil – sharh – xulosa), qahramonlar munosabat xaritasi, motivlar jadvali.	Munozarani boshqaradi, savollarni chuqurlashtiradi, talqinni matn daliliga bogʻlaydi.	Matndan dalil topadi, guruhda bahslashadi, nuqtayi nazarini himoya qiladi.	Guruhlar: 1) Otabek; 2) Kumush; 3) Zaynab obrazlari boʻyicha dalilli taqdimot.	Tayyor javob emas, asoslangan va muqobil talqinlar shakllanadi.
3. Darsdan keyin (ijodiy ish va refleksiya)	Yozma nutq, argumentatsiya, qayta ishlash va mustaqil fikrni mustahkamlash.	Esse qolipi, mantiqiy izchillik boʻyicha fidbek, til va uslubiy tavsiya.	Baholash mezonlarini qoʻllaydi, plagiatning oldini oladi, shaxsiy fikr ulushini tekshiradi.	Avval mustaqil yozadi, keyin fidbek asosida qayta yozadi, refleksiya qiladi.	Mavzu: “Otabek obrazida anʼana va yangilanish ziddiyati”; 2-qoralama orqali takomillashtirish.	Yozma ish sifati, fikrning dalillanganligi va mustaqillik darajasi oshadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, SI darsning barcha bosqichida aniq didaktik vazifani bajaruvchi yordamchi mexanizm sifatida ishlaydi. O'qituvchi metodik boshqaruvni saqlab qoladi, o'quvchi esa matndan dalil topish, talqinni himoya qilish va mustaqil fikrni yozma shaklda asoslash orqali faol subyektga aylanadi; natijada tayyor javobni takrorlash emas, balki chuqur anglash, dalillangan talqin va akademik halollikka tayangan ijodiy fikrlash sifat-lari rivojlanadi.

Adabiyot ta'limida SIdan samara-li foydalanishning kaliti uni aniq qoida-lar (protokol) asosida qo'llashdir. "Qa-chon? Nima uchun? Qanday?" formulasi-ga tayangan ushbu protokol darsni yengil yo'lga emas, chuqur o'qishga yo'naltiradi.

O'quvchilar bilimi va intilishini baho-lashda faqat yakuniy matn emas, balki o'quvchining mualliflik ulushi (shaxsiy fikr va xulosa salmog'i), manba bilan ish-lash madaniyati (iqtibos aniqligi, havo-la to'g'riligi), keltirilgan dalilning badi-iy matnga bog'langanligi, qayta ishlash dinamikasi (1-qoralama va 2-qoralama o'rtasidagi mazmunli o'zgarish), og'za-ki himoyada fikrni mustaqil va izchil izohlay olish darajasi hisobga olinishi shart.




Adabiyot ta'limida SIdan samarali foydalanish, avvalo, o'qituvchining integ-ral kompetensiyasiga bog'liq: u bir vaqt-ning o'zida ham SI vositalarining imkon-iyat-cheklovlarini bilishi, ham badiiy matn tahlili metodikasini chuqur egallagan bo'lishi kerak. Ya'ni SI savodxonligi tex-nik ko'nikma sifatida emas, adabiy-meto-dik maqsadga xizmat qiluvchi pedagogik mahorat bilan uyg'unlashgandagina nati-ja beradi. Bunday integratsiya o'qituvchi-ga uchta ustuvor vazifani sifatli bajarish imkonini yaratadi:

- 1) *dars maqsadiga mos raqamli vazifani tanlash;*
- 2) *o'quvchining mustaqil talqinini saqlab qolish;*
- 3) *SI natijalarini matn dalili asosida tekshirish.*

Shu tarzda o'qituvchi texnologiya operatori emas, balki badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodik yo'naltiruvchi-ga aylanadi.

Bizningcha, mazkur yo'nalishni ilmiy jihatdan mustahkamlash uchun ekspe-rimental-sinov ishlarini tizimli tashkil etish, SI yordamidagi ta'lim samarasini o'lchaydigan aniq baholash indikatorla-rini ishlab chiqish hamda o'zbek adabi-yoti, milliy o'quv muhiti va til xususiyatla-riga mos integrativ metodik platformani yaratish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

SIdan maqsadli foydalanish modeli oddiy, ammo qat'iy mantiqqa tayanadi: o'qituvchi yetakchi bo'lsa, vosita maqsadga xizmat qilsa, natija tekshirilsa va o'quvchining fikriy faolligi saqlansa, SI samara beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Vincent-Lancrin S., Gonzales-Sancho C., Bouckaert M., de Luca F., Fernández-Barrera M., Jacotin G. Fostering Students Creativity and Critical Thinking: What It Means in School. – Paris: OECD Publishing, 2019.
4. UNESCO. Beijing Consensus on Artificial Intelligence and Education. – Paris: UNESCO, 2019.
5. OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. – Paris: OECD, 2019 (updated 2024). URL: <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0449>.
6. Borgonovi F., Burns T., Rodrigues M. et al. AI adoption in the education system. – Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/12/ai-adoption-in-the-education-system_43251cf0/69bd0a4a-en.pdf.
7. Xo'jamqulov U. Sun'iy intellekt o'qituvchini ishdan ayiradimi? // Til va adabiyot ta'limi, 2025, №8.
8. Saidov A. Yangi darsliklar avlodini yaratish yo'lida // Hurriyat, 2026, №5 (1483).